GAVHARSHODBEGIM – “ONA LOCHIN VIDOSI” ROMANIDAGI KONFLIKTNING MARKAZIY NUQTASI

Xaydarova Gullola Xoshimjonovna
O‘zbekiston Respublikasi
IIV Farg‘ona akademik litseyi bosh o‘qituvchisi,
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
97-596-14-45 hajdarovagullola@ gmail.com

Annotatsiya
Pirimqul Qodirovning tarixiy mavzudagi romanlaridan biri “Ona lochin vidosi” yozuvchi ijodida alohida o‘rin egallaydi. Ushbu roman boshqa tarixiy romanlaridan farqli o‘laroq mustaqillik yillarida yozilgan. Lekin asar kitobxonlar, adabiyotshunoslar, tarixchilar tomonidan turli qarashlar asosida tahlillarga sabab bo‘ldi. Chunki romanning bosh qahramoni Gavharshod begim siymosi tarixiy va badiiy adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Buning asosiy sabablardan biri Gavharshod begimning umri davomida turli ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar qurshovida yashaganidir. Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida bosh qahramon Gavharshod begimning konfliktga to‘la hayoti muallif tomonidan zo‘r mahorat bilan to‘laqonli yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *syujet, badiiy obraz, konflikt, tarixiy shaxs, realism, ruhiy tahlil.*

KIRISH

Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida tariximizning eng fojiali sahifalaridan biri – XV asr birinchi yarmida o‘zaro taxt talashishlar asosida tanazzulga yuz tutib borayotgan temuriylar saltanatining qonli voqealari o‘z ifodasini topgan. Unda muallif mudhish voqealarning asl ildizi nimada ekanligini badiiy to‘qimalar orqali ochishga harakat qiladi. Temuriylar, ayniqsa, Ulug‘bek va Abdulatif orasidagi nizoning boshlang‘ich nuqtalaridan tortib, kulminatsiyasigacha kechgan har bir voqeani zukkolik bilan kuzatadi va xulosa chiqaradi. Bu voqealarda asarning asosiy obrazi sanalgan Gavharshodbegimning o‘rni va ta’sirini qator voqealar tafsiloti, malikaning ichki kechinmalari asosida ochib berishga urinadi.

Uning fojiali qismatini o‘rganish, undagi eng nozik nuqtalarni topish va bu tarixga imkon qadar aniqlik kiritish bugungi kun o‘zbek tarixchilarining hamda adabiyotshunoslarining oldidagi eng dolzarb masalalaridan biridir. Asar badiiyatini belgilovchi eng muhim omillaridan biri konflikt sanaladi. D.Quronovning ta’kidlashicha[1], syujetni harakatga keltirib, ta’sirchanlikni oshiradi, voqealar rivojining shiddatli va qiziqarli kechishini belgilaydi, yozuvchining badiiy-estetik maqsadini teranroq anglash imkonini beradi. Adabiyotshunoslikda konflikt asar qahramonining botindagi qarama-karshi kechinmalari orasidagi ziddiyot, xarakterlar to‘qnashuvi, shaxs va ijtimoiy muhit orasida kechayotgan kurash asosida vujudga kelishi hamda shu asosda uning, asosan, quyidagi uch turi uchrashi qayd etilgan:

1. Ruhiy konflikt – qahramon qalbidagi hissiyotlar, tushunchalarning ojiz va kuchli jihatlari orasidagi o‘zaro kurash;

[1]Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, 2004. – B.87.

2. Ijtimoiy konflikt – asar qahramonlari bilan ular yashayotgan muhit o‘rtasidagi kurash;

3. Xarakterlararo konflikt – bir-biriga qarama-qarshi xarakterlar, guruhlar o‘rtasidagi kurash.

Konfliktning asar mundarijasida tutgan o‘rni qahramon botindagi, xarakterlar, shaxs va ijtimoiy muhit orasida kechayotgan ziddiyot asosida vujudga kelishi va ular mohiyatini ochib berishi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar sharhi. Biror badiiy asarni konfliktsiz tasavvur etish mumkin emas. Zero, hayotning o‘zi turli-tuman qarama-qarshiliklar va ziddiyotlardan iborat bo‘lib, inson (badiiy asarda qahramon) ular qurshovida yashaydi, ularni yengib borish orqali o‘zligini, hayot mazmunini anglaydi, shaxs sifatida kamol topadi, dunyoqarashini shakllantiradi. Demak, badiiy asarda nima tasvirga olinishidan qat’iy nazar, u o‘z tabiatiga ko‘ra birinchi navbatda inson va jamiyat haqida fikr yuritadi, uni turli qiyofalarda aks ettiradi, shuning uchun ham unda konflikt bo‘lishi tabiiy holdir. Ya’ni “...badiiy asar voqealikni badiiy aks ettirgani va uning markazida inson obrazi turgani uchun ham insonning real hayotida mavjud konfliktlarning bari unda badiiy aksini topadi”[2]. Konfliktni to‘g‘ri qura bilish, uning asl ildizi va mohiyatini teran anglay olish orqali adib asarda tasvirlanayotgan voqealarda ishonchlilikni, badiiy to‘qimaning hayot haqiqatiga mosligini ta’minlashga erishadi hamda kitobxon ko‘z o‘ngida hayot manzaralari va qahramonlar ichki olamining realistik badiiy manzaralarini gavdalantira oladi.

Konflikt badiiy asarning syujet qurilishida ham o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘ladi. Adabiyotshunoslikda ta’kidlanishicha, konsentrik syujet qurilishidagi asarlarda konflikt voqealarning tez va shiddatli kechishini ta’minlaydi. Chunki bunday syujet asosiga qurilgan asarlarda nisbatan qisqa vaqt ichida kechgan voqea-hodisalar tasviri shuni taqozo etadi.

Badiiy asar kompozitsiyasi keng qamrovli tushunchadir. “Muallifni o‘ylatgan muammo asar konfliktida o‘z aksini topsa, uning g‘oyaviy-hissiy bahosi ko‘proq kompozitsiyaning muhim unsuri bo‘lmish obrazlar tizimida bo‘rtib ko‘zga tashlanadi. Nihoyat, muallifning badiiy hukmi – badiiy konsepsiyaning tashkillanishi va ifodalanishida kompozitsiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Konsepsiya (lotinchada tartibga solish, tuzib chiqish) asardagi barcha unsurlarni shunday uyushtiradiki, natijada unda bironta ham ortiqcha unsurining o‘zi bo‘lmaydi, zero, har bir unsur asar butunligida o‘zining funksiyasiga ega bo‘ladi, muayyan g‘oyaviy-badiiy yuk tashiydi”[3]. Ko‘rinib turibdiki, konflikt ijodkorni jamiyat va inson haqida bahs yuritishga chorlaydigan muammolar majmuidir. Ijodkor ana shu muammolarni tasvirlar ekan, o‘ziga xos muayyan bir tartibni tanlaydi, natijada asar kompozitsiyasi vujudga keladi. Har bir adib o‘z asarida tilga olinayotgan konflikt – ziddiyotlar turi va mohiyatidan kelib chiqqan holda u yoki bu kompozitsion qurilishni tanlaydi.

Abdulla Qodiriy ta’kidlaganidek[4], haqiqiy ijodkor asar yaratishdan oldin turmushni har taraflama o‘rganishi, uning har sohalaridan xabardor bo‘lishi, asar

[2] Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, 2004. – B.87.
[3] Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – Toshkent, 2000. – B.89
[4] Qodiriy A. Diyori bakr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B.391.

voqealari kechadigan joyning ko‘rinishi, kishilar va ularning xarakteriga xos asosiy belgilarni aniqlab olishi, asarga kiritiladigan har xil badiiy detallar (kichkina, arzimas bo‘lsa ham)ga e’tibor qaratishi to‘laqonli xarakter yaratishning muhim omillaridandir. Demak, asarlardagi konflikt va xarakterlar ham, eng avvalo, ijodkor badiiy tafakkurining mahsulidir. Har qanday ijodkor hayotiy voqealikni badiiy idrok etadi, o‘z nuqtai nazaridan baholaydi, xulosa chiqaradi va umumlashtirgan holda badiiy matnga ko‘chiradi. Badiiy matnga ko‘chirish jarayonida badiiy asarning va xarakter yaratishning eng zarur xususiyatlaridan biri – badiiy to‘qima vujudga keladi.

Badiiy to‘qima yolg‘on, uydirma bo‘lsa-da, u o‘quvchini ma’naviy ozuqa berishi, ishontirishi, ta’sirlantirishi, o‘ylantirishi shart. U hayotning odatdagi mantig‘iga muvofiq kelish-kelmasligidan qat’iy nazar, qahramonlar qiyofasini yorqinlashtirsa, o‘quvchi tasavvuriga qandaydir yangiliklar olib kirsa, ijodkorning yutug‘i sanaladi. Shuni ta’kidlash joizki, barcha san’at asarlarini barkamol qilgan hodisa, avvalo, badiiy to‘qimadir. Shuning uchun ham har qanday badiiy asardagi konflikt va xarakter talqinini usiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Muhokama va natijalar tahlili. Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romani alohida nomlangan yigirma olti bobdan iborat kompozitsion qurilishga ega. Adib asarning g‘oyaviy estetik konsepsiyasidan kelib chiqqan holda romanning har bir bobida konfliktning u yoki bu ko‘rinishidan foydalangan. Romanning dastlabki sahifalaridanoq konfliktlar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar bo‘rtib ko‘rina boshlaydi, asar arxitetonikasi – boblarda tasvirlangan voqealar orasidagi uyg‘unlik, mutanosibligi, badiiy elementlarning o‘zaro moslashuvida muhim ahamiyat kasb eta boradi.

Roman qahramonlari tasvirida ham ziddiyatning adabiyotshunoslik e’tirof etgan uch turi u yoki bu darajada o‘z ifodasini topgan. Adibning g‘oyaviy maqsadini ochishga, xilma-xil obrazlar va xarakterlarning o‘ziga xos jihatlarini yorqinroq tasavvur etishga xizmat qilgan. Mazkur roman ziddiyatlarga boyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bu ziddiyatlar boblarning nomlanishida ko‘zga tashlanadi. Adib metaforik mazmunga asoslangan “Tog‘larga tarmashgan bulutlar” deb nomlangan dastlabki bobning birinchi satrlaridanoq o‘quvchini ziddiyatlar girdobiga tortadi, tog‘lar – temuriylar saltanati ustida suza boshlagan qora bulutlar – saltanat dushmanlaridan ogoh qilishga kirishadi: “Qasrning yuqori qavatidagi naqshinkor ayvondan qorli Iskalja tog‘lari ko‘rinib turadi.

Ayvonda kitob o‘qib o‘tirgan Gavharshod begim goho sahifalardan ko‘zini olib, o‘sha tog‘lar atrofida o‘ralashadigan bulutlarga o‘ychan tikiladi. Baland tog‘ tizmasi ustidan oshib o‘tolmaydigan og‘ir qora bulutlar cho‘qqilar ustiga shamol bo‘ron keltirishi, do‘l yog‘dirishi begimning qo‘lidagi Azdiy “Zafarnoma”sining tahlikali voqealariga o‘xshab ketadi...”[5].

Muallif bu parchadagi tabiat manzarasi va unda ro‘y berayotgan qarama-qarshiliklar misolida, avvalo, Gavharshod begim qalbida kechayotgan xavotirli o‘ylar, uning nimadandir iztirobda ekanligi haqida xabar bermoqchi bo‘lsa, ikkinchidan, yuksak tog‘larga tirmashayotgan og‘ir qora bulutlar orqali temuriylar boshiga tushajak fojiali voqealarga ishora qiladi. Albatta, har qanday ziddiyat ma’lum sabablarga ko‘ra

[5] Qodirov P. Ona lochin vidosi. – Toshkent, 2001. – B.3.

vujudga keladi. Yozuvchi romanning dastlabki sahifalaridanoq temuriylar saltanatini yemira boshlagan qarama-qarshiliklarning ildizlaridan biri manfaatparastlik ekanini ko‘rsatishga harakat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, 2004. – B.87.
2. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – Toshkent, 2000. – B.89.
3. Qodiriy A. Diyori bakr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B.391.
4. Qodirov P. Ona lochin vidosi. – Toshkent: Sharq, 2001.
5. Temuriy malikalar www.ziyouz.com kutubxonasi